



MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA METAFORANING QO'LLANISHI

Yusupova Sevinch Bahromovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti
2-ingliz fakulteti 4-bosqich 2214-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Nazokat Jiyanova Eshquvvatovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17450617>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'riyatida metaforaning uslubiy o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, shoir Muhammad Yusuf leksik birliklardan biri hisoblangan ma'no ko'chirishining badiiy ifodasi hisoblangan metaforani o'z she'rlarida juda keng qo'llaganligi misollar asosida tahlil etilgan. Fanda metaforaning she'riyatdagi uslubiy o'rni juda katta ahamiyat kasb etib, ruhiyat va hayot manzaralarini tasvirlashdagi eng muhim ta'sirchan vosita sifatida ta'riflangan. Ushbu maqolada Muhammad Yusufning obrazli tafakkuri, xalqona ifoda uslubi va samimiy tuyg'ulari ko'chma ma'no orqali bayon etilishi tadqiq qilingan.*

Kalit so'zlar: *ko'chim, tur, metafora, badiiy ifoda, obrazlilik, uslubiy vosita, tasviriy vosita, ma'no qirralar, tuyg'ular, ifoda plani.*

KIRISH. Ilmiy manbalarda leksema tilning asosiy birligi sanalishi ta'kidlab o'tilgan. Har qanday leksema material, ya'ni tovush va ma'no tomonlarining birligidan iborat bo'ladi. Fanda leksik (lug'aviy) ma'no to'g'risida turlicha nazariy qarashlar mavjud. So'zning obyektiv borliqdagi narsa-predmet, harakat-holat, belgi, miqdor va shu kabilarni anglatuvchi tushuncha bu so'zning leksik ma'nosi sanaladi: *kitob, stul, parta* predmet haqida; *chopmoq, hansiramoq, o'tirmoq* turli harakatlar haqida; *sariq, oq, qora* belgi haqida ma'lumot beradi. Leksik ma'no bu so'zlarning narsa-predmet, belgi, harakat-holat, miqdorning o'zini emas, ular haqidagi tushunchaning kishi ongidagi umumiy in'ikosini anglatuvchi lug'aviy ma'nolar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. So'zlarning semantik belgisidan tashqari uslubiy belgisi ham mavjud. Bunday xususiyat so'zlarning biror uslubga xosligini ko'rsatuvchi belgisi hisoblanadi: *kulmoq* so'zida biror uslubga xoslik belgisi mavjud emas. Uning sinonimik qatorida mavjud bo'lgan *hiringlamoq, ishshaymoq, irjaymoq, tirjaymoq* kabi shakllarida so'zlashuv va badiiy uslubga xoslik tomonlari mavjud. Bulardan mosini, o'rinli qo'llay olish uslubiy vazifa sanaladi. Badiiy asarda obraz xususiyatidan kelib chiqqan holda yozuvchi tanlagan so'zlardan mosini qo'llaydi. Bu yozuvchi uslubining o'ziga xos tomonlarini ochib beradi. So'zlashuv uslubida esa ulardan mosini qo'llab fikr ifodalash shaxs psixologik holati bilan bog'liq bo'ladi. [1.56]

So'zlar bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega. Bir ma'nolilik ilmiy terminlarga xos bo'lsa, ko'p ma'nolilik esa nutqimizda ko'p uchraydi. Bunday so'zlar



asl ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’noda ham qo‘llanadi: *Inson ko‘zi asl ma’noda qo‘llanilgan bo‘lsa, derazaning ko‘zi, daraxtning ko‘zi, uzukning ko‘zi, buloqning ko‘zi, ignaning ko‘zi, ishning ko‘zi* kabi qolgan ma’nolari asl ma’nosi bilan bog‘liqlikdagi ko‘chma ma’nolardir.[1.65]

She’riyatda ko‘chim turlaridan biri sifatida metafora juda ko‘p qo‘llaniladi. Ayniqsa, shoirlarning ruhiy olamini ifodalashda, samimiy tuyg‘ularni ochib berishda, turli xil holatni yoritishda, badiiy tasvirni ifodalashda metaforaning o‘rni muhim. Shuning uchun ham shoirlarimiz shu usuldan keng foydalanishadi. O‘zbek she’riyatida metaforadan foydalanish holatini barcha shoirlarning she’rlarida kuzatish mumkin. O‘zbek shoirlaridan biri Muhammad Yusuf she’riyatida ham badiiy ifoda usuli hisoblangan metaforadan foydalangan. Fanda, xalq tili bilan aytganda “Ko‘chma ma’no” ni ifodalashda qo‘llaniladigan metaforaning uch turi farqlanadi. Bular belgi o‘xshashligiga, shakl o‘xshashligiga va harakat o‘xshashligiga asoslangan.

Ilmiy manbalarda metaforaga shunday ta’rif berilgan. Metafora ~ (grekcha metaphora – ko‘chirish) – biror predmet belgisining, shaklning va harakatning o‘xshash tomonini boshqasiga ko‘chirish ma’nosini anglatadi. Metaforada ma’no ko‘chishi uch turda amalga oshiriladi.

Birinchisi bu belgi-xususiyat orqalidir, unga ko‘ra ma’no ko‘chishi quyidagicha amalga oshadi: *shirin olma (o‘z ma’nosida), shirin muomala (ko‘chma ma’noda)*.

Ikkinchisi bu shakl orqalidir, misol uchun: *ko‘ylakning etagi (o‘z ma’nosida), tog‘ning etagi (ko‘chma ma’noda)*.

Uchinchisi harakat orqalidir: *ko‘l quridi (o‘z ma’nosida), iz quridi (ko‘chma ma’noda)*.

METODOLOGIYASI VA TAHLILLAR. Barchamizga ma’lumki, metafora she’rni yanada ta’sirchan, jozibali qilishga xizmat qiladi. U orqali nafaqat she’rlar ma’noli va mazmunli holatga aylanadi, balki u tasvir vositasi sifatida lirik qahramon ruhiyatini ochib berishda, she’rxonga ta’sir etishda ham muhim uslubiy vazifaga xoslanadi. Xususan, Muhammad Yusuf she’riyatida metaforaning o‘rni kengroqdir. Bu esa shoir qalbining tub-tublarida aytilmoqchi bo‘lgan dard, alam, qayg‘u bilan birga shodlik, quvonch, baxtiyorlik hislarini yoritishda metaforadan o‘rinli foydalana olganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, shoirning “Vatanim” she’rida metaforadan foydalangan holda vatanga muhabbat, uning o‘tmishiga hurmat kabi ma’no-mazmun juda chiroyli ravishda ifodalangan:

Bu qanday yuz qarolig‘ deb,

Yotarlar zimistonda,



Tarqab ketgan to'qson olti

Urug'imsan, Vatanim...(belgi-xususiyat metafora)

Bu yerda shoir vatanni urug'imsan deb tasvirlash orqali uni urug'ga qiyoslagan. Bu belgiga oid metafora hisoblanib belgi-xususiyat ifodalash uchun xizmat qilgan. Yana uning "Sevgi sadosi" nomli she'rida ham metaforaning belgi-xususiyat ifodasini uchratishimiz mumkin:

*Siz achchiq qismatim, siz iztirobim,
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim,
Siz mening ko'klardan topgan oftobim,
Yerlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz.*

Shoir bu she'rida shirin dard, shirin azob kabi ko'chma ma'nolardan foydalagan. Aslida dard shirin bo'lmaydi, lekin bu jarayonda ko'chimlar she'rga o'ziga xos joziba baxsh etgan holda ta'sirchanlikni oshirgan.

Shoir Muhammad Yusufning she'riyatida metaforaning harakat-xususiyatni ifodalagan holatlarni ham kuzatish mumkin. Shoirning "Faryod" nomli she'rida harakat-xususiyatni ifodalovchi metafora quyidagicha qo'llanilgan:

*Tun cho'ksa-yu, ko'rinmasa tongotar,
Qay tomonga yonboshlasam tosh botar,
Onam olib qo'ygan beshik bo'sh yotar,
Ayb mendami, ayb sendami endi yor?..*

Ushbu she'riy parchada metaforaning harakat-o'xshashligiga asoslangan holatni kuzatishimiz mumkin. Bunda shoir tunning cho'kishini (zulmatning kelishi, og'irlik yoki qayg'u) ko'chma ma'noda ifodalagan. Misol uchun: *kema cho'kishi (o'z ma'nosida), tun cho'kishi (ko'chma ma'noda)*.

Shuningdek, M.Yusufning "Bir qiz yig'lar" she'rida ham harakat- o'xshashligiga asoslangan ma'no ko'chishi mavjud:

*Tovoniga tushgan kokillar,
Qizginaga qo'shilib yig'lar.
Bir so'z dilga sanchadi tig'lar.
Bevafo ko'p ekan dunyoda...*

Muhammad Yusufning she'riyatida metaforaning shakl-o'xshashligiga asoslangan turini ham ko'rishimiz mumkin:

*Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,*



Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Yoki:

...Minoradek marmar haykali,
Ko‘rinsa ham hatto Hirotda.
Qavmin uyi tursa chayqalib,
To‘yi tatirmikin u zotga?..

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, elimizning ardoqli shoiri Muhammad Yusuf she‘riyati inson ruhiyatiga hamohang, tili uslubi soda va shirali, inson ruhiyatiga ta‘sir etadigan ohanglarga yo‘g‘rilgan. Shuning uchun ham barchamiz birdek sevib o‘qiymiz va yod olamiz. Shoir she‘riyati avloddan avlodga meros sifatida o‘ta oladigan ta‘sir kuchiga ega she‘riyatdir. Har gal o‘qiganimizda o‘zimizga yangi-yangi ma‘nolarni kashf etamiz. Shoir bilan dardlashamiz, suhbatlashamiz. Bunday holatni ifoda etishda metaforadan o‘rinli va unumli foydalana olganligidan, deb ayta olamiz. Ko‘chma ma‘nolilik nafaqat uning she‘rlarini jozibali va ta‘sirchan qilgan, balki she‘rning ma‘nosini ham kitobxonlarga o‘ziga xos uslubda, ya‘ni obrazlilik bilan yetkazib berish uchun xizmat qila olgan. Shoirning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari va ruhiyati metafora orqali o‘z ifodasini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Jiyanova. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. -Toshkent, 2024-yil, 490-b.
2. Maxmudova K. Muhammad Yusuf she‘rlaridagi metaforaning qo‘llanilishi.
3. Muhammad Yusuf she‘riy to‘plamlari. Internet manbalar.